

## O'N IKKI MAQOM TIZIMINING ILMIY O'RGANILISH TARIXI.

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası 12-1vokal-20-guruh talabasi

**Davronova Maftuna Baxodirovna**

**Annotatsiya:** Mahobatli maqom tizimlarini “bino” qilish uchun eng avvalo poydevordek ahamiyatga ega mukammal pardalarni yuzaga keltirish (yoki ularni ilmiy asosda to‘g‘ri aniqlab olish) zarur bo‘lgan. Tabiiyki, bu ilmiy vazifa musiqashunos olimlar zimmasiga yuklangan. Shu bois e‘tiborimizni bu borada musiqashunoslikda kechgan ayrim ilmiy jarayonlarga qaratamiz.

**Kalit so‘zlar:** Maqom, interval, nag‘ma, bo‘d, jins, jam‘, ilmi iyqo‘, vazn.

Avvalambor shuni ta‘kidlash kerakki, Forobiy Sharq musiqa nazariyasini shakllantirishda qadimgi dunyo nazariyotchilari qoldirgan ilmiy merosga ijodiy yondoshgan edi. Bu hol, juladan, musiqaning ilmi ta‘lif (nag‘ma, bo‘d, jins, jam‘) va ilmi iyqo‘ (vazn) masalalarini tadqiq etishda ko‘zga tashlanadi. Masalan, alloma

iyqo‘-ritm masalasini qadimgi yunon olimlari kabi she‘riyat qonunlari doirasida emas, balki, o‘z davri musiqa amaliyotidan kelib chiqqan holda, alohida fan sifatida tadqiq etgan. Bu borada Forobiyning “Kitabul iyqo‘ot” asari alohida ilmiy qiymatga ega. Bu asarda ilk bor mumtoz iyqo‘ nazariyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ritm-usul omilining mustaqil badiiy ahamiyati hamda musiqada tutgan beqiyos o‘rni asoslab berilgan edi. Forobiyning iyqo‘ ta‘limoti keyinchalik alloma Ibn Sinoning

“Kitobush-shifo”, “Kitobun-najot” va “Donishnoma” ilmiy asarlarida rivojlantirildi. Sharq olimlari musiqaning ilmi ta‘lif masalalarini o‘rganishda ham qadimgi yunon nazariyotchilari, jumladan Pifagor (tax. e.a. 580-520) ilmga tadbiq etgan sonli (matematik) usullarni keng qo‘llagan edilar. Zero shaklan hashamatli me‘moriy inshootlarga qiyoslanishi mumkin bo‘lgan mumtoz musiqa tizimlarini yuzaga keltirish uchun eng avvalo aniq “o‘lchovlar” asosida ishlab chiqilgan musiqiy “qurilma”lar bo‘lishi talab etilgan. Ilmi ta‘lif mazmunida kuyning tarkibiy asoslari - eng kichik birligi – **nag‘ma** (musiqiy tovush, ton), shuningdek, ikki nag‘ma nisbatidagi turli sifatli **bo‘d** (interval) va ularning qo‘shilmalari asosida **jins** (asosan to‘rt-besh pog‘onali tetra-pentaxordlar) hamda jinslar birikuvidan iborat **jam‘** (oktava miqyosidagi tovushqator) larni hosil qilish kabi masalalar tadqiq qilingan. Bunda ud cholg‘usining tori sifatida faraz qilingan to‘g‘ri chiziq (1) ning geometrik asosda teng ikkiga bo‘linishi (1:2) zul-kull (sof oktava), yuzaga kelgan ikkini shu asosda uchga bo‘linish (2:3) nisbati zul-hams (sof kvinta), uchni to‘rtga (3:4) bo‘linishi esa zul-arba‘ (sof kvarta) kabi bo‘dlarning sonlar nisbatidagi ifodasini bergan. Qolgan intervallar ham shu kabi aniqlanib olingan. Keyingi o‘rinda esa ikki tovush nisbatidagi uyg‘un (konsonans) interval (bo‘d) lar negizida jins va jam‘lar ishlab chiqilgan. Bu tadqiqotning pirovardida musiqa amaliyotida qo‘llash uchun ma‘qul va manzur bo‘lgan pardalar uyushmasi aniqlab olinishi kerak edi. Lekin shuni ham ta‘kidlash joizki, yunonlarning sonli nisbatlardagi tadqiq usullarini Sharq olimlari ta‘lif masalalarini ilmiy o‘rganishda ijodiy o‘zlashtirgan edilar. Chunonchi, qadimgi yunonlar ishlab chiqqan doriy, frigiya, miksolidiy kabi nomlanuvchi oktava miqyosidagi unqatorlar yuqoridan quyiga qarab “o‘qilgan”. Buni, masalan, yunonlarning miksolidiy nomli unqatori misolida shunday tasavvur etish mumkin:

Nota misoli



Sharq allomalari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Mansur Ibn Zayla va ularning izdoshlari aksincha, yuksalma tarzidagi mukammal tovushqatorlarni nazariy jihatdan ishlab chiqish borasida tadqiqot olib borgan edilar. Bu kabi nazariy

holatlar esa o'sha davr badiiy-estetik talablariga muvofiq bo'lib, jumladan, musiqada ustivor ahamiyat kasb eta boshlagan **yangi uslub** negizida amalga oshirilgan ko'rinadi. Ushbu uslubga berilgan dastlabki ta'rif esa shunday: yangi uslub bu kuy ohanglarining umumiy to'lqinsimon harakatida avj pardalariga (cho'qqiga) qarab yuksalish tamoyili yetakchi o'rin tutgan musiqiy jarayondir. Tabiiyki, Movarounnahr hududida shakl topayotgan yangi uslub tarkibiga mafkura nuqtai-nazardan ustivor ahamiyatiga ega bo'lgan mahalliy musiqiy an'analar ham jalb etilgan. Masalan, shunday an'analar salmog'ini turk kuylari tashkil etgan bo'lishi haqiqatga yaqindir. Bu fikrga «kuy» atamasining kelib chiqishi va semantik

jihatlari ham asos bo'lishi mumkin. – «Kuy» atamasi dastlab “kug” (“ko'k”) tarzida talaffuz etilgan bo'lib, keyinchalik «kuy» shakliga o'tgan. Musiqashunos olim A.Muhambetovanning fikriga ko'ra, kuy nomli musiqiy namunalar turkiy xalqlarning islomga qadar madaniyatiga taalluqli bo'lib, mazmunan qadimiy kosmologik qarashlarni aks ettiradi. Olima kuy ohanglari yo'nalishida yuqoriga ko'tarilish tamoyili yetakchi o'rin tutishini nazarda tutib, kelajakda uning (kuy) shakli tasavvuf g'oyasini ifoda etish uchun muhim qolip (andoza) bo'lib, xizmat qilganligini ta'kidlaydi. Boshqacha aytganda, musiqada yangi uslubning qaror topishi jarayonida “kuy” va tasavvufning “komil inson” ta'limoti uyg'unlashib ketgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bu o'rinda e'tiborli tomoni yana shundaki, yuksalma tarzidagi parda uyushmalari dastlab “maqom” atamasi bilan yuritilmagan, balki bu o'rinda ko'proq «yo'l» ma'nosini anglatuvchi “roh”, “taroiq”, “ravish” kabi atamalar qo'llangan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma'qul va manzur bo'lgan bu mukammal pardalar negizida esa turli darajadagi ohanglar, shu jumladan, qadimiy davrlarga mansub ohang tuzilmalari ham rivojlantirilib, mumtoz kuy holiga keltirilgan ko'rinadi. Har holda Safiuddin Urmaviyning “Kitabul-advar” risolasida keltirilgan “tariqa” (yo'l, shuningdek, usul, yo'sin) nomli kuy yo'llari shunday xulosaga ma'lum asos beradi. «Yo'l» ma'nosini anglatuvchi maxsus atamalar IX asrdan (Forobiy) boshlab to XIII asr oxiri (Urmaviy) ga qadar keng qo'llanib kelingan bo'lib, hozirda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, Surnay yo'llari, Dutor yo'llari, Chertim yo'li, Aytim yo'li kabi iboralarda saqlanib qolgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.

6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
7. Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
8. Ramazanova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
9. [ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ.](#) Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том I Номер 6 Страницы 94-96
10. [ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.](#) Угилой Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99
11. Behruz Boltayev Hamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>
12. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>
13. Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.
14. Boltayev B. H. Buxoroshashmaqomidoyrausullari ijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.
15. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
16. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.
17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.
18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.
19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.
20. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'Rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
21. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку.](#) УХ Рамазонава - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023

22. O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNI VA ANAMIYATI

O Farangiz - TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ..., 2022

23. Важность использования инновационных технологий в науке об основах техники пения. Углой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science 1 694-96

24. Внедрение и применение инновационных технологий в сознании студентов в образовательном процессе. УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023

25. Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема. УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023

26. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

27. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

29. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ // ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.

31. Hamitova S. B., Gulzira N. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.

32. Qo'chqorova U. D., Hamitova S. B. MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ORNI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 105-109.

33. Hamitova S. B. AN'ANAVIY XONANDALIK VA UNING RIVOJLANISH TARIXI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.